

## SILIBUM MARIANUM L.NING PANASEYA NAVI TUPROQ VA ILDIZ NEMATODA ANALIZI

**Sharipbayeva Y.M., Askarova M.R**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: [muzaffarovnayulduz@gmail.com](mailto:muzaffarovnayulduz@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Prezidentimiz (2020-yil 10-aprel, PQ- 4670 - son qarori dorivor o‘simliklarning muhim ahamiyati), davlatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika xo‘jaligi rivojiga katta e‘tibor berilmoqda. Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar va ularning ahamiyati katta. Fitonematodalarning o‘simliklarga yetarlicha zarar keltiradigan turlari bo‘lib, dorivor o‘simliklarga zarar keltiradigan turlari O‘zbekiston sharoitida o‘rganilmagan.

**Kalit so‘zlar:** nematoda, dorivor o‘simlik, eusaprofitlar, devisaprobiontlar, fitogelmintlar, qishloq xo‘jaligi.

## ANALYSIS OF SOIL AND ROOT NEMATODE OF SILIBUM MARIANUM L. PANASEYA

**Annotation:** Today, great attention is being paid to the development of the agricultural and pharmaceutical economy organized by our President (April 10, 2020 Presidial decision №4670 the importance of medicinal plants). Medicinal plants and safety importance in Central Asia Republic, Uzbekistan. Types of phytonematodes phytonematodes that cause sufficient damage to plants, and species that cause sufficient damage to medicinal plants. Production plants of Uzbekistan.

**Key words:** nematode, medicinal plant, eusaphrophyt, deviosaphrophyt, phytohelmint, agriculture.

Rastoropsha o‘simligining tabiiy ahamiyati katta bo‘lib tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Farmatsevtika sanoati uchun muhim xom ashyo manbai hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida tabiiy maydonlar mavjud bo‘lib, sanoat ahamiyatiga ega ekanligi inobatga olinib, keyingi yillarda Ma‘mun akademiyasi tajriba dalalarida sun‘iy maydonlar tashkil qilingan.

**Material va metodika.** Fitogelmintologiyada tuproqdan, o‘simlikdan na‘munalar olishda ikki xil usuldan foydalaniladi. Biri marshrut, ikkinchisi statsionar usul. Tuproqdan, ildizdan fitonematodalarni ajratib olishda fitogelmintologiyada keng qo‘llaniladigan Berman usulidan foydalanildi.

Tadqiqotlarda marshrut usuldan foydalanildi. Namunalar reja asosida, piyoda, yo‘l - yo‘lakay bosib o‘tish usuli (marshrut) bilan taxminan bir xil masofadan, panaseya navli rastoropsha o‘simligi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘idan olindi. Namunalar Xorazm viloyati Xiva tumani Ma‘mun akademiyasi tajriba uchastkalari dorivor ekinlar ekilgan maydonlardan 2021- yil iyun oyida yig‘ildi. Namunalar olinganda dorivor o‘simliklar holatiga e‘tibor berildi.

E.S.Kiryanova, E.L.Krall metodikasi asosida ildiz sistemasi ko‘zdan kechirildi(1). Rastoropsha o‘simligi panatseya navi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘idan fitonematodalarning 203 ta 22 turga mansub vakillari topildi. Rastoropsha o‘simligi panatseya navi o‘simlik ildizi yuqori qatlamidan (0-30sm) 10 dona, 8 turga mansub, ildizning (30-60sm) chuqurroq qatlamidan 53 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi.

Ildiz atrofi tuprog‘idan tuproq namunalari yuqorida keltirilgandek ikkita gorizont bo‘yicha, ustki, ostki tuprog‘idan (0-30, 30-60sm) olindi. Yuqori qatlamda (0-30sm) 64 ta 15 turga mansub, ostki qatlamda (30-60sm) 76 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi. Ekologik guruhlardan ko‘proq devisaprobiontlar uchradi.

**Natija va xulosalar.** Rastoropsha o‘simligi panatseya navi o‘simlik ildizi yuqori qatlamidan (0-30sm) 10 dona, 8 turga mansub, ildizning (30-60sm) chuqurroq qatlamidan 53 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi.

Ildiz atrofi tuprog‘idan tuproq namunalari yuqorida keltirilgandek ikkita gorizont bo‘yicha, ustki, ostki tuprog‘idan (0-30, 30-60sm) olindi. Yuqori qatlamda (0-30sm) 64

ta 15 turga mansub, ostki qatlamda (30-60sm) 76 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi. Ekologik guruhlardan ko‘proq devisaprobiontlar uchradi. Ekologik guruhlardan devisaprobiontlar: *Plectus parietinus*, *Proteroplectus longicaudatus*, *Panagrolaimus armatus*, *Panagrolaimus rigidus*, *Cephalobus persegnis*, *Heterocephalobus elongatae*, *Acrobeloedes tricornis*, *Chilloplacus symmetricus*, *Chilloplacus lentus* lar asosan o‘simlik ildizi chuqur qatlamida, ildiz atrofi tuprog‘i chuqur qatlamlarida xilma-xilligi kuzatildi.

Pararizobiontlardan *Mylonchulus solus*, *Eudorylaimus monohystera*, *Aporcelaimellus obtusicaudatus* ildizning 30-60sm chuqurligida, ildiz atrofi tuprog‘i 30-60 sm chuqurligida, *Enchodellus macrodorus* ildiz atrofi tuprog‘i ostki qatlamida, *Fylenchus filiformis* esa rastoropsha o‘simligi panatseya navi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida uchradi(4).

Eusaprobiontlardan *Rhabditis* avlodi vakillaridan uch turi uchradi. *Rhabditis filiformis* rastoropsha o‘simligi panatseya navi ildizining ostki qatlamida ikkita, ildiz atrofi tuprog‘ining yuqori qatlamida bir dona uchradi(3). *Rhabditis intermedius* faqat ildiz atrofi tuprog‘ining ostki qatlamida, *Rhabditis brevispina* ildiz ostki qatlami, ildiz atrofi tuprog‘i ostki qatlamida uchradi.

Fitogelmintlarning haqiqiy parazitlaridan *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Paratylenchus hamatus*, maxsus kasallik keltirib chaqirmaydiganlaridan *Aphelenchus avenae*, *Aphelenchus cylindricaudatus* lar uchradi. *Silibum Marianum* L.ning tuprog‘ qatlamlari tarkibi turlicha tarqalgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мавлонов О.М. Фитонематоды как индикаторы агрохимических свойств почв. // Международный нематологический симпозиум. –М.: 2001. 69-70 с.
2. Масленникова В.Ф. Нематодофауна риса Узбекистана. –Зоолжурн., 1966, 45, №5. с.641.
3. Метлицкий О.З. О классификации нематод – паразитов растений. В кн. : «Проблемы паразитологии», часть III, Киев, Изд. «Науково-думка», 1972, 18-19 стр.
4. Муминов Б.А., Гулямова Д.Б., Эшова Х.С., Абдурахмонова Г.А. Изучение структуры биоценотического комплекса фитонематод агроценозов в различных типах почв. //Parazitologiyaning dolzarb muammolari.–Qarshi. 2003..42-44-betlar.